

So'z san'atining boshlanishi folklordadir

Joriy yilning 13 dekabr kuni "Ogahiy" tavalludining 210 yilligi munosabati bilan "B" o'quv binosi 4 - qavatida joylashgan majlislar zalida "IBRATLI, IJODKOR INSONLAR" ruknida Xorazm baxshichilik maktabi ijodkorlaridan biri Matyakubov Otaxon baxshi bilan uchrashuv o'tkazildi.

Uchrashuvda "Gidrotexnika qurilishi" fakulteti talabalaridan 160 nafar talaba hamda professor-o'qituvchilar ishtirok etishdi. Tadbirni R.Jumaniyazov kirish so'zi bilan ochib, baxshilik san'ati bo'yicha yig'ilish ishtirokchilariga ma'lumot berdi-da va mehmon Otoxon baxshi Matyakubovga navbat berdi.

Ma'ruzachi o'z ijodi haqida tadbir ishtirokchilariga so'zlab berdi hamda shogirdlari bilan o'zining ijodidan hamda "Ogahiy" g'azallaridan ijro etib berdi. Tadbir so'ngida Yoshlar bilan ishslash bo'yicha prorektor R.Q.Choriev mexmonni institut rahbariyati nomidan tabrikladi.



"GTQ" fakulteti Yoshlar bilan ishslash bo'yicha dekan o'rribosari A.I.Azimov axboroti

Institut Matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov